

Gulruk IMAMOVA,
BuxDU 2-bosqich magistranti,
E-mail:g.l.imamova@buxdu.uz

Buxoro davlat universiteti, ingliz adabiyotshunosligi va tarjimashunoslik kafedrasi dotsenti, PhD Axmedova Mehrinigor Bahodirovna taqrizi asosida

JIN RAYNSNING “KENG SARGASSO DENGIZI” ROMANIDA RAMZ TALQINI

Annotatsiya

Ushbu maqolada ramz tushunchasi sifatida eslatib o'tish mumkin bo'lgan asardan ayrim parchalar hamda ularning tasnifi ham yoritilgan. Maqolada asarning o'sha davrdagi jamiyat va undagi kishilarning yashash tarziga anchagina urg'u berilganligi va ramz tushunchasini ham ko'pincha shu qismlarda kuzatish mumkinligi tufayli asarda sotsiologik uslub, ayrim misollar yozuvchining aynan o'zining hayotidan kelib chiqqan holda tasvirlangan qismini biografik uslubga, hayotidagi kechinmalar qahramonning psixologiyasiga ta'sir etishini esa psixoanalitik, tarixiy usul orqali yoritib berilishi nazada tutiladi.

Kalit so'zlar: Ramzlar, adabiy matn tarkibi, stilistika, funksiyalar, belgilar, yozuvchining individual uslubi

INTERPRETATION OF SYMBOLISM IN “WIDE SARGASSO SEA” BY JEAN RHYS

Annotation

The article is devoted to the urgent problem of artistic Stylistics - the use of units depicting the symbols in the specific construction of works of art based on the stories of Jean Rhys. The article distinguishes three levels of compositional significance: the author-narrator in particular the level of what he sees and understands, the level of historical and philosophical generalizations, and the author's level of "I". The writer shows the grammatical, structural variety of symbols, the dependence of the choice of symbolic units of different expressive-stylistic colors, their functions and the ability to differ from the specific relationship of the author. Individual author's methods of using symbolic units are separated and described. The article has the parts which include symbolisms and all these parts are analyzed in the work. As the article defines the society of that time and symbolisms are used in these parts, sociological method was utilized and the influence of the lifetime problems was the reason of leveraging psychoanalytical, biographical method and historical methods.

Keywords: Symbols, composition of literary text, stylistics, functions of symbols, individual writer style

СИМВОЛИЗМЫ В ПРОИЗВЕДЕНИЕ ЖИН РИЗ“WIDE SARGASSO SEA”

Аннотация

Статья посвящена актуальной проблеме художественной стилистики - использованию единиц, изображающих символы, в специфическом построении произведений искусства по мотивам рассказов Джина Райса. В статье выделяются три уровня композиционной значимости: автор-повествователь, в частности, уровень того, что он видит и понимает, уровень исторических и философских обобщений и уровень авторского "я". Писатель показывает грамматическое, структурное разнообразие символов, зависимость выбора символических единиц разной экспрессивно-стилистической окраски, их функции и способность отличаться от конкретного отношения автора. Выделены и описаны индивидуальные авторские методы использования символических единиц и так же в статье использованы социологический, психоаналитический и биографический, исторический методы.

Ключевые слова: Символ, композиция художественного текста, стилистика, функции символов, индивидуальный стиль писателя

Kirish. Adabiyotda voqeqlikni badiiy ifodalashda ramzlarga murojaat qilish badiiyatning shartli usullaridan biri sifatida ta'riflanadi. Tasvir jarayonida yozuvchining ichki niyati, kitobxonga yetkazmoqchi bo'lgan fikri ramzlar orqali ifodalananadi. Ramziylik – obyekt, shaxs yoki joyning to‘g’ridan-to‘g’ri ma’nosidan tashqari mavhum g‘oyani ifodalashi deb ham ta’riflanadi. Angliyalik yozuvchi Jin Rays “Keng Sargasso dengizi” romanida juda ko‘p ramzlardan mahorat bilan foydalangan. Ushbu ramzlarni foydalananishda yozuvchining asli kelib chiqishi, o’sha davrdagi vaziyatning ham tasiri juda katta. Yozuvchi “keng Sargasso dengizi” nomli asarida Britaniya mustamlakalaridan bira bo‘gan Dominikada qulchilikdan keyingi vaziyat va bu nafaqat qullarning balki quldarlarning hayotida ham keskin burilishlar yasaganligini ifodasini ushbu asar tahlilida kuzatish mumkin. Qahramonlarning boshidan kechirgan kechinmalar hamda ko‘nglidan o’tkazgan voqealarni yozuvchi ko‘proq ramzlar timsolida beradi. Ushbu ishda ko‘zgu, bog’, olov, ayollarning kiyimlari, qushlar kabilar ramziylikni ifodalaganligi tahliliga duch kelish mumkin. Ramz tushunchasining ahamiyatini aynan “Keng Sargasso dengizi” kabi asarlarni tahlil qilayotganda yanada chuqurroq tushunish mumkin.

Tahlil va natijalar. Asar sarlavhasining “Keng Sargasso dengizi” deb nomlanishi alohida chuqur ma’noga ega. Ma’lumki, Sargasso dengizi Shimoliy Atlantika okeanining o‘rtasida joylashgan, qirg‘oqsiz dunyodagi yagona dengiz. Yozuvchining aynan shu dengiz nomini sarlavha darajasiga olib chiqishi alohida ramziylik kasb etadi. Sargasso dengizi Antuanettaning ijtimoiy, ruhiy holatiga ishora bo`lib, uning bosphanasizligi, vatansizligi qirg‘oqsiz dengizga tenglashtiriladi. Yozuvchi uning hech qanday aniq bir madaniyat, millatga tegishli emasligi, shaxs sifatida o‘zini anglolmasligi, ikki millat va madaniyat o‘rtasida sarson bo`lishini Sargasso dengizi kabi mustaqil emasligi, okean oqimlariga qaramiligi orqali ifodalashga harakat qiladi. Adabiy tanqidchi Barat Antuanetta – Sargasso dengizi, u “muxtoriyat va o‘zlikni izlashda ayollik timsoli: u shunchalik qattiq kurashsa ham, hech qachon unga qamrab olgan ekspluatator va patriarchal tuzumming makkor tuzoqlaridan xalos bo‘lولmaydi deya ta’rif beradi”[1].

“Keng Sargasso dengizi” haqida adabiy tanqidchilarning fikrlariga yuzlanar ekanmiz “Har kungi dunyo” (The Daily World) 1967 yildagi jurnalining 11-iyun sonida Rays xonim bir necha yillar davomida Sharlotta Brontening “Jeyn Eyr” asarining qahramonlaridan biriga qiziqib keldi. Bu Jeyn Eyr emas balki Janob Rochesterning telba Yamaykalik xotini, Bertha Mason edi. Aynan shu ayloning ayancli taqdiri haqida o‘zining aynan shu asarida yoritib berdi. (Miss Rhys has been haunted for many years by Charlotte Brontë’s “Jane Eyre”. It is not Jane herself who interests her but M. Rochester’s insane first wife, Bertha Mason, whom he married in Jamaica. This book is Miss Rhys effort to fill in the unfortunate woman’s past.)

Laura Fish “Keng Sargasso dengizi” nafaqat ajoyib asar balki bir necha buyuk romanlar jamlanmasidir deb ta’kidlaydi. Bir necha qismli ushbu asar hamda ‘Jane Eyre’ asarida intertekstuallik yaqqol namoyon bo’sada ikkala asar qahramonlarining dunyoqarashlari tubdan farq qilishini hamda ularning taqdirlari o’tmish bilan ifodalanganligini sezish qiyin emas”. (“Wide Sargasso Sea” is not just a great novel, it is many brilliant books in one. Multi-layered and complex, Jean Rhys’s prelude to Jane Eyre vividly illustrates how accounts and understanding differ, and creates a sense of the characters’ past being inescapable)[1].

Kler Armetsted Gardian jurnalida Rays haqida yozar ekan “Rays modernizm XIX asr adabiyotiga modernizm bo‘yog‘ini kirita oldi. Rochester timsoli ostida ham u aynan ana shu bo‘yoqdotligini ko‘rsata oldi. 1966- yilda nashr etilgan ushbu asar nafaqat Jeyn Eyr asariga intertekstuallik asosida yozilgan balki to‘liq siyosiy roman bo‘lib, har bir qahramon o‘zining ayanchli taqdiriga ega, Qirg‘in nomli shaharcha, Talofot nomli bola, Eri tomonidan majburan Berta deb nomlangan, xayolot dunyosiga cho‘lg‘igan Antuanetta....

Qulchilikning bekor qilinishidan bir necha yil oldin Antuanettaning onasi uchun to‘y sovg‘asi sifatida Yamaykaga olib kelingan kishi, Kristofin edi. U qullik bekor qilinishidan bir necha yil oldin olib kelingan. U “obeah” (vudu,sehr) bilan shug‘ullanadi va uning asl niyati va sodiqligi haqida asar davomida bir xulosaga kelish juda qiyin.

Yakuniy qismida Berta tomonidan Tornfild Xolldagi voqealar hikoya qilinadi, u yerda Sharlotta Brontening qahramoni Greys Pul tomonidan shafqatsizlarcha munosabat ifodalangan parchalar mavjud. Zinapoyadagi shamning miltillashida ikki roman birlashishi ifodalangan tasvirlar sezish mumkin deb talqin qilinadi.(“Rhys’s triumph is to put a modernist palette to the service of the 19th-century imagination: she lets us see the colors while also demonstrating to us how they appear to Rochester. Published in 1966, this isn’t simply a prequel but a deeply political novel in its own right, in which names echo with a traumatic history that can barely be remembered, let alone mentioned: a town called Massacre, a boy called Disastrous, and Antoinette herself, who is cruelly stripped of her illusions by a husband who insists on calling her Bertha. In prose becoming steadily more queasy and disorientating, we witness a disintegration that is also a disinheritance. The final section is narrated by Bertha from her attic in Thornfield Hall, where she is brutally constrained by Charlotte Brontë’s character Grace Poole. In the flicker of a candle on a draughty stairwell, the two novels come together, and two very different sorts of gothic merge into one.”)[1].

Romanda irqiy mojarolarni, moliyaviy tazyiq hamda ma’naviy tazyiqni ochib beruvchi ramzlarga ham murojaat qilingan.

1.Yamaykada oq tanlilar boshqaruv sohasida bo‘lib, atigi bir foiz odam ushbu irqqa mansub edi. Oddiy aholi asosan sobiq qul bo‘lgan qora tanlilar va na oqlarga, na mahalliy aholiga tegishli bo‘lgan kreollar nomli qatlamdan iborat edi. Kreollar sobiq ingliz, fransuz yoki ispanlarning avlodи bo‘lib, bosh qahramon Antuanetta va uning onasi Annet ushbu irqqa mansub edi. Mahalliy aholi oq tanli yevropaliklarni ham, kreollarni ham tan olmas, ularni “oq suvaraklar yoki “oq nigirlar” deb atab, ruhiy va ma’naviy zulm qilishardi. Quyidagi parcha yuqorida aytib o‘tgan sharhimizga yaqqol misol bo‘la oladi: “Nevertheless, English promises of financial restitution do not materialize for a number of years. It is the act of abandonment by their own race that adds the extra edge of bitterness and despair. The family is marooned, indeed, since they are “white niggers” in the eyes of European whites. As a result, they are completely isolated in the society of Jamaica”[2].

2.Ushbu romanda ayollarning erkaklarga moliyaviy jihatdan qaram ekanligi to‘g‘risidagi ma’lumotlarga tez-tez duch kelamiz. Bunday vaziyatdagi ayollarning iqtisodiy masalalarda hech qanday rolga ega bo‘limganligi ularning jamiyatda ham ma’lum bir rolga ega bo‘limganliklari bilan talqin qilinadi. Antuannetaning o‘gay otasi va o‘gay akasi tomonidan uyushtirilgan turmush uning moliyaviy mustaqillikdan moliyaviy qaramlik tomon boshladi. Garchi boshida ikkilangan bo‘lsada Antuanneta janob Rochesterga turmushga chiqishga rozi bo‘ldi va ingliz qonunida takidlanganidek Antuannetaning o‘ttiz ming funt qalin pulisi hamda Grandbois nomli qo‘rg‘on uning turmush o‘rtog‘i nomiga o‘tishi, uni moddiy qaramlik tomon boshladi. Antuanning turmush o‘rtog‘i pulni to‘g‘ri sarflay olmaslikda ayblay boshladi. Ushbu parcha yuqoridagi so‘zlarimiz isboti bo‘la oladi.“she handed out so carelessly, not counting it, not knowing how much she gave...”[2]. Tez orada hamma narsa janob Rochester tomonidan boshqariladigan bo‘ldi va Antuanneta unga mutlaq qaram bo‘lib qoldi.

3.Manaviy tazyiq aynan janob Rochesterning Antuannetani ham moddiy ham ma’naviy jihatdan boshqarishga harakat qilishga harakat qilishi bilan talqin qilinadi. U Antuannetaning ishonchini albatta baxtli qilishini va himoya qilishini takrorlab qozonadi ammo Antuanneta unga ko‘ngil qo‘yib turmushga chiqqanidan keyin butunlay boshqa insonga aylanadi . Barcha hodisa janob Rochesterning Daniel Coswaydan olgan xati bilan bog‘lansada u xotinining o‘z oilasi haqida savollarga berayotgan javoblarini eshitishni ham xoxlamasligi aynan uning Antuanettaga qilgan zug‘mlarni biri deb talqin qilinadi. She wants to clear up Daniel’s rumors but is rejected by Rochester, “We won’t talk about it now. Rest tonight. Not tonight. Some other time”[1] ushbu parchada Antuannetaning chorasisz qolganligi garchi turmush o‘rtog‘iga vaziyatni tushuntirishga intilsada to‘liq rad etilganlini anglash qiyin emas. Janob Rochester Antuannetaning vajlarini eshitishni ham xoxlamasligi quyidagi parchada yaqqol namoyon. Antoinette is irritated, “you ask questions about my mother and then refuse listen to my answer.” Aynan o‘sha voqeadan so‘ng Antuannetaning gapirish huquqidam doim mosuvo bo‘lishini asarning keyingi qismlarida guvohi bo‘lamiz. Aynan moddiy va ma’naviy siqilish uni aqldan ozishiga sabab bo‘lganligini to‘g‘risida ham taxminlar mavjud. Adabiy tanqidchilardan bo‘lgan Jenkins aytgan jumlalar taxminimizning isboti bo‘la oladi. “There were social and psychological reasons why women might go, or be considered, ‘mad’: women led restricted lives, their ambitions were often considered ‘mad’. Their lives were in the hands of their husbands and male relatives. They could be locked up, divorced and deprived of their children and money if they were diagnosed ‘mad’.

Asarda obyektlar vositasida ramziy tushunchalar keltirilganini quyida berilgan parchalar tahlili yordamida guvoh bo‘lamiz

Qushlar: “He made an effort to fly down but his clipped wings failed him and he fell screeching. He was all in fire”[1]. Ushbu parchada Antuanettaning qiyinchiliklari to‘tiquş obrazi orqali ramziy ifodalananadi. Janob Meyson tomonidan qanotlari kesilgan, ozodligi bo‘g‘ilgan qush Antuanettaning eri tomonidan erkinlikdan mahrum qilinganligi, qush kabi chorasizligi talqin qilinadi.

Ko‘zgu: Romanda qahramonlar ko‘pincha ko‘zgulardan o‘zlarining shaxsini anglashga yordam beradigan tashqi vosita sifatida qarashadi. Ishontirish va ularning qo‘rquvini yengish uchun ham ko‘zgu asarda bot-bot ishlatalidigan obyektlardan biridir. Ko‘zoynaklar, mazmunli nigohlari va tiniq suv havzasini kabilar ko‘zgu vazifasini bajarib qahramonlarning o‘zi haqida chuqurroq anglashga intilishining ramzi sifatida ifodalangan. Quyidagi parchada Antuanettaning onasi Annet garchi oqsuyak

¹ O‘sha asar-P.39.

yevropaliklar tomonidan rad etilib kelinayotgan bo'lsa-da o'zining tashqi ko'rinishi bilan qayta obro' qozonishi mumkin deb o'ylab oynaga qarashi haqidagi parcha berilgan. "Still planned and hoped—perhaps she had to hope every time she passed a looking glass." [1]. Quyidagi parchada esa yozuvchi Antuanettaning monastirda bo'lgan davrida boshdan kechirgan voqealarini ifodalashda ayanan ko'zgu timsolidan mahorat bilan foydalanganini guvohi bo'lishimiz mumkin: "We have no looking-glass in the dormitory" [2]. Jin Raysning monastrda oyna mavjud emasligini eslatib o'tishi, qahramon shaxsiyatini, o'zliginini yo'qotganligini ifodalaydi.

O'rmonlar va daraxtlar: Antuanettaning o'rmon va daraxtlar haqidagi tushi, alohida simvolik ma'noga ega bo'lib, qo'rquinchli, noma'lum va sovuq o'rmon uning iztirobli kelajagi ifodasi sifatida talqin qilinadi. "Now we have reached the forest. We are under the tall dark trees and there is no wind. "Here"? He turns and looks at me, his face black with hatred, and when I see this I began to cry" [10]. Bu parchadagi tasvir Antuanettani kelajakda qayg'uga soladigan vaziyatlar kutayotganligiga ishora qiladi.

Bog': Antuanetta Kolibri mulkidagi bog'ni hashamatli, bo'rttirib ilohiy bog' bilan taqqoslaydi. Uning so'zlari bilan aytganda, bog' o'zining yorqin ranglari, o'tkir hidlari va chigal o'sisdhi bilan kishining hislarini uyg'otadi". Antuanettaning ta'kidlashicha "Our garden was large and and beautiful as that garden in the Bible- the tree of life grew there. But it had gone wild" [11]. Romanda tasvirlangan Kreol turmush tarzi—ekspluatatsiya, boylik va qullikka asoslangan ekanligi — qarovsiz bog'ni tasvirlash barobarida qahramon o'zini tasvir etgan deb talqin qilinadi.

Ayollarning liboslari va sochlaring holati: Romanning boshida Tia va Antuanetta janjallashganda, Tia uning libosini o'g'irlab, Antuanettani kamsitadi. Annetning oilani qashshoqlikdan olib chiqish harakati o'zi va Antuanetta uchun yangi liboslar tikishdan boshlanadi. Antuanetta isitmabal anchadan keyin uyg'organida, u kasal bo'lib qolganini va katta o'zgarish sodir bo'lganini ya'ni sochlari kesilganini ko'radi. Luisa de Plana, romandagi eng ideal ayol, doimo oq libosda va Antuanetta unga taqlid qilishga doimo urinadi va bu harakatlari doim muvaffaqiyatsizlik bilan yakun topadi. Kristofinning ko'pincha baland rangdagi libosi esa uni vajohatli qilib ko'rsatadi.

Olov: Yong'in romandagi ham halokat ham qutqaruvchi kuchdir. Kalibridagi qo'rg'onidagi yong'in - bu yaqin atrofdagi qora tanlilar tomonidan qasos va bo'y sunish harakati, ammo bu Antuanetta hayotining bolalik davridagi qiyinchiliklardan uni ozod qiladi. Antuanettaning bolaligidagi Kalibri qo'rg'onidagi yong'in , Antuanneta va erining asal oyi davomida shamlar uchquni yoki to'tiquish Kokoning alangada qolishi ayanchli kelajakdan darak bersada Antuannetta roman oxirida nihoyat erkinlikka erishadi.

Jin Raysning ayanan vaqt va makon in'ikosini ifodalashida ayanan o'sha hududni tanlashida ham chuqur ma'no bor . Ushbu hudud qullikdan keyingi Britaniya kaloniyalaridagi vaziyat talqini bo'lib, qullikning tugatilishi yaxshilikning nafs bo'tqoqiga botganlardan ozod bo'lishi deb talqin qilinadi. Ammo qullikning tugatilishi kelib chiqishi kreol oиласидан bo'lgan Antuanetta uchun yaqin qarindoshlaridan judo bo'lishi bilan yakunlandi. Qullikni bekor qilish konvensiyasi anchagina davlatlar, shuningdek,Yamaykadagi siyosiy ahvolni tubdan o'zgartirdi. Antuannetaning fikricha ushbu konvensiya u va uning oila a'zolariga xafsizlik jihatdan tahdidiga sabab bo'ldi

Ko'rinib turibdiki, Antuanettaning o'rta yoshlik davri madaniy hamda gender tengsizligidan aziyatga boy bo'lish bilan birga uning yoshligi ham ayanan shunday siyosiy vaziyat tufayli qiyinchiliklar hamda psixologik hujumlar ostida o'tdi. Antuanettaning fikricha, kuch-qudrat hamda tilning har xilligi gender tengsizligi ziddiyatning kuchayishiga sabab bo'ladi.

Xulosa. Yozuvchi Jin Rays adabiy tanqidchilar hamda kitobxonlar orasida simvolizmlardan mohirona foydalana olishi bilan ajralib turadi. O'sha davrni tasvirlar ekan, yozuvchi qahramonlarining kechinmalarini shunchaki tasvirlashga emas, balki ramzlar orqali qahramonlarining ruhiy, hissiy, ma'naviy tuyg'ularini olib berishga harakat qiladi. Ramz tushunchasi talqinida yozuvchi moliyaviy, ma'naviy,jismoniy qaramlikka ham urg'u berib o'tadi. Keng Sargasso dengizi bu adabiy tanqidchilar o'rtasida qizg'in bahs-munozaralarga sabab bo'lgan romanlardan biri deb hali hanuz takidlanadi. Mustamlakachilik tuzumidan keying davr sifatida roman Angliyaning mustamlakachilik imperiyasini deb ayblab, uning ushbu boshqaruv tizimini Karib orollari aholisining ahvoli misolida bayon etadi. Biroq, Raysning hikoyasi - oq kreol - irqiy zulm bilan bir qatorda patriarchat tuzum ifodasida ham namoyon bo'ladi va maqolada ayanan shu so'zlarning isbotini kuzatish mumkin bo'lgan misollarga duch kelish mumkin. Shu sababli, feministik nazariyachilar uchun bu ramanning asosiy qahramoni bahs-munozara manbasidir. Rasmiy uslublari va tematik manbalarida Rays romani zamonaliviy va postmodern vositalarini o'z ichiga oladi, shu bilan birga, ba'zida ulug'verlik, ehtiros va g'ayritabiylilik haqidagi romantik tushunchalarga asoslangan asar sifatida takidlanadi.

ADABIYOTLAR

1. Barat. Colonial Criticism. London, "Longman", 2001.-P.-40.
2. <https://lithub.com/read-the-first-reviews-of-jean-rhys-wide-sargasso-sea/>
3. <https://lithub.com/read-the-first-reviews-of-jean-rhys-wide-sargasso-sea/>
4. J. Rhys. Wide Sargasso sea. New York ,”Constable”, 1967.- P.28-29.
5. J. Rhys. Wide Sargasso sea. New York ,”Constable”, 1967.-P.53.
6. J. Rhys. Wide Sargasso sea. New York ,”Constable”, 1967.- P.81.
7. O'sha asar-P.39.
8. O'sha asr-B.3.
9. O'sha asr- B.45.
10. O'sha asar-B.54.
11. O'sha asar-B.17.